



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШНИ ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Namangan xizmat ko 'rsatish va servis texnikumi*

*psixolog*

***U.Akbarova***

*email: umida2573@gmail.com*

*telefon raqam: 93-495-25-73*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan psixologik-pedagogik omillari tahlil qilinadi. Ularni bola tarbiyasidagi ahamiyati, shaxs sifatida voyaga yetkazishda asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu davrda pedagoglarni mahorati, ularni egallagan bilimlari pedagogik jarayonda qo'llagan turli texnologiyalari, didaktik vositalari, bolalarga mos bo'lgan ta'limiylar, psixologik o'yinlarni o'rni beqiyos. Maqolada ta'lim jarayonida pedagogi jarayonga yondashuvi, pedagog va psixologlar o'rtaSIDAGI hamkorlik aloqalari va uning samarali taraflari hamda psixologik omillarni tarbiyalanuvchilarga ta'siri ko'rib chiqiladi.

***Abstract.*** This article analyzes the psychological and pedagogical factors that are important in improving the quality of preschool education. Their importance in raising a child and in growing up as a person plays a key role. During this period, the skills of teachers, the knowledge they have acquired, the various technologies used in the pedagogical process, didactic tools, educational and psychological games suitable for children play an invaluable role. The article examines the teacher's approach to the process in the educational process, the relationship between teachers and psychologists and its effective aspects, as well as the impact of psychological factors on students.



**Аннотация.** В статье анализируются психолого-педагогические факторы, имеющие значение для повышения качества дошкольного образования. Их значение в образовании детей и их развитии как личностей играет ключевую роль. В этот период неоценимую роль играют навыки педагогов, полученные ими знания, различные технологии, которые они используют в педагогическом процессе, дидактические средства, а также обучающие и психологические игры, подходящие для детей. В статье рассматривается подход педагога к процессу в образовательном процессе, взаимоотношения педагогов и психологов и их эффективные аспекты, а также влияние психологических факторов на учащихся.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik-psixologik omillar, ta’lim sifati, pedagog, psixolog, hamkorlik, maktabgacha ta’lim tashkiloti, bola,pedagogik yondashuv

Maktabgacha ta’lim bolalarning har tomonlama rivojlanishining poydevor qismi hisoblanib, bu davrda bolani psixologik,jismoniy,aqliy, ijtimoiy-hissiy taraflama rivojlantirish va bu asosda bolaga ta’lim tarbiya berish muhim omillardan biri sanaladi.Qolaversa har bir tarbiyalanuvchini individual xususiyatlarini inobatga olgan holatda qobilyatlarini rivojlanish tarbiyachi pedagogdan mahorat va malaka talab etadi va bu ishlarda pedagogik psixologik omillar asosiy rol o‘ynaydi.

Negaki,tarbiyalanuvchi faoliyati asosan yuqorida keltirilgan ikkita omilga asosan amalga oshadi.

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda pedagogik va psixologik omillarning ta’siri va uning ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu omillar bolalarni ijodiy va aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yil 8-may sanasida tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish konsepsiya”si ; 2019-yil 16-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining



Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish hozirgi kunda eng dolzARB va muammoli mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Fikrimizcha, sohada sifatni oshirish bo‘yicha pedagog kadrlarni malakasini oshirish, pedagogik jamoda sog‘lom muhit yaratish zarurdir.

Bundan tashqari, tashkilotda oila, mahalla hamkorligi, ularning maktabgacha ta’lim sohasi borasida munosabatlari, amalga oshirilayotgan hamkorlik aloqalari bo‘yicha qanday ishlar olib borilayotganligini nazorat qilish lozim. Chunki oila ,mahalla hamkorligi bola tarbiyasida muhim omil sanaladi.



Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglar tarbiyalanuvchilarga qanday munosabatda bo‘lishadi, ular rag‘batlantiriladimi,tarbiyachi-pedagoglar kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga,kasbiy vakolatlarini rivojlantirishga intiladimi,maktabgacha ta’lim texnologiyalarini foydalanishga



yo‘naltirilganmi, ularga tanish bo‘lgan yoki maktabgacha ta’lim sohasidagi ilg‘or samaraliroq usullarni amaliyatga tatbiq etishga tayyormi[1]

Bizningcha ,tashkilotda ta’lim sifatini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish,pedagoglarni o‘z ustida ishlashi, mashg‘ulotlarni turli didaktik materiallar asosida tashkil etishi samarali natija ko‘rsatadi. Qolaversa bolalarni pedagogik va psixologik taraflama rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir.



Bolalar shaxsiyatining rivojlanishi ko‘pincha ularning psixologik holati va emotsiyal

yaxlitligiga bog‘liq. Psixologik omillar ta’lim sifatini oshirishda juda katta rol o‘ynaydi, chunki

ular bolalar uchun qulay va samarali o‘rganish sharoitlarini yaratadi.[2]

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holatda shuni ta’kidlab o‘tish joizki bolani nafaqat maktab ta’limiga tayyorlash balki, uni kelajakda shaxs sifatida har



tomonlama yetuk inson bo‘lib ulg‘ayishiga psixologik va pedagogik omillarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim sifatini rivojlantirishda psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillar bolalarning o‘zini tutishi, o‘qishga bo‘lgan munosabati, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda rol o‘ynaydi. Quyida maktabgacha ta’limda psixologik omillarning asosiy jihatlari keltirilgan:

**1. Emotsional rivojlanish:** Bolalarning emotsiyonal holati ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Tarbiyachining mehribonligi, bola bilan o‘zaro munosabatlar va qulay muhit bolalarning o‘zini qulay his qilishlariga yordam beradi, bu esa o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

**2. O‘z-o‘zini anglash:** Bolalar o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini tushunishlari zarur. O‘z-o‘zini anglash jarayoni bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularni yangi bilimlarni o‘rganishga rag‘batlantiradi.

**3. Ijtimoiy ko‘nikmalar:** Maktabgacha ta’limda bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni, jamoada ishlashni va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadilar. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bolalarning kelajakdagи muvaffaqiyatlari uchun muhimdir.

**4. Rag‘batlantirish:** Ta’lim jarayonida bolalarning rag‘batlantirish va uni qo‘llab quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Qiziqarli faoliyatlar va o‘yinlar orqali bolalarga o‘rganish jarayonida qiziqish uyg‘otish mumkin.

**5. Oila va jamiyat ta’siri:** Ota-onalar va jamiyatning tarbiyaviy yondashuvlari bolalarning psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Oila muhitidagi sevgisi, qo‘llab-quvvatlashi va ijobiy munosabatlar bolalar uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

**6. O‘zaro munosabatlar:** Bolalar o‘zaro munosabatlar orqali ko‘p narsalarni o‘rganadilar. Ularning do‘slik, hamkorlik va raqobat kabi hissiyotlarini rivojlantirish muhimdir.



Ushbu psixologik omillar mактабгача та'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga eга bo'lib, bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida psixologik jihatlarni hisobga olish, bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradi.. Eng asosiysi, MTT xodimlarining tarbiyalanuvchilarga nisbatan mehribonligi, qo'llab-quvvatlashi bolalarning o'zini qulay his qilishlariga yordam beradi.

**Pedagogik Omillar :**

**1. O'qituvchining professional malakasi:** Maktabgacha ta'lim sohasida pedagogik omillar bola tarbiyasida muhim ahamiyatga eга bo'lib malakali pedagog bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning rivojlanishiga mos keladigan ta'lim jarayonini tashkil etadi.

**2. Ta'lim muhitining qulayligi:** Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi muhit bola uchun qulay va xavfsiz bo'lishi kerak. O'yin maydonchalari, o'quv materiallari va boshqa resurslar bolalarning rivojlanishiga yordam beradi.





**3.O‘yin faoliyati:** Maktabgacha ta’lim sohasini yuragi hisoblangan o‘yin faoliyati bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki ta’limiy ahamiyatga ham ega. O‘yinlar orqali bolalar ijtimoiy ko‘nikmalarni, mantiqiy fikrlashni va ijodkorlikni rivojlantiradilar.



**4.Ta’lim dasturlari va metodikalar:** Maktabgacha ta’lim dasturlari bolalarning rivojlanishiga mos bo‘lishi kerak. Zamonaviy metodikalar va texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshiradi.

Ushbu omillar birgalikda bola tarbiyasini shakllantiradi va ularning shaxs sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim jarayoni bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda , maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish uchun pedagog kadrlar malakasini oshirish, tarbiyachilar pedagogik faoliyatga didaktik o‘yinlar orqali yondashishishi, va eng asosiysi pedagogik-psixologik omillarni inobatga olish darkor. Tarbiyalanuvchilarni sog‘lom holatda rivojlanishida psixologik taraflama bola bilan shug‘ullanish bola holatini tasniflovchi turli pedagogik-psixologik testlar topshiriqlar ishlab chiqish va ular bilan muntazam ravishda ishslash samarali natija berishiga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

- “Maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda pedagogik psixologik omillar” Jovmirzaeva Nargiza Quvondiqovna :INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE “PRESCHOOL EDUCATION: QUALITY AND EFFICIENCY, DEVELOPMENT PERSPECTIVES”, 2024



2. “Maktabgacha ta’lim sifatini oshirishni pedagogik-psixologik omillari”

1Xorinova Ma’mura Komilovna,

2Nematullayeva Ismigul Odiljon qizi ; INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE “PRESCHOOL EDUCATION: QUALITY AND EFFICIENCY, DEVELOPMENT PERSPECTIVES”, 2024

3.“Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya”si ;  
08.05.2019-yil

4.”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun 16.12.2019-yil